

FORMING STUDENTS 'SKILLS OF PEACE, UNITY, JUSTICE AND PHYSICAL PERFECTION THROUGH THE FRIEND "ALPOMISH"

Ahmedov Furkat Kuldoshovich

Dean of the Faculty of Physical Culture of Jizzakh State Pedagogical Institute

Kobilov Sobir Donakulovich

Researcher of the Samarkand branch of the Center for Scientific and Methodological Retraining and Advanced Training of Physical Culture and Sports

Abstract:

The article deals with the formation of physical, spiritual and moral qualities in students through the epic "Alpomish".

Keywords: "Alpomish", courage, bravery, tolerance, friendship, struggle, peace, unity, justice, courage, physical perfection.

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning orzu-armonlari va qo'vonchlarini aks ettiruvchi xalq og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang-barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan- avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi. Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasini bo'lgan ana shu asarlarda ajdodlarimizning urf-odatlarini va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan.

O'tgan asrning 50-yillarda o'zbek xalq eposini har jihatdan o'rganish va to'plash borasida Hodi Zaripov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainovalar samarali ish olib bordilar. Ularning say'-harakatlari natijasida "O'zbek folkloridan namunalar" to'plami chop etildi. "Oysuluv", "Ravshan", «Malika ayyor», "Kuntug'mish", "Yodgor", "Orzigul", "Shirin bilan Shakar", "Rustamxon", "Intizor", "Murodxon" kabi dostonlar hamda "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan aytilgan varianti, shuningdek, "O'zbek xalq dostonlari" ikki tomligining nashr etilishi folklorshunoslikdagi muhim voqealardan biri bo'ldi.

1960-80 yillar orasida o'zbek folklorini ilmiy-nazariy o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, juda katta madaniy boyligimiz bo'lgan xalq dostonlarini har tomonlama o'rganish folklorshunoslikning diqqat markazida bo'ldi. Folklorshunos olimlar M.Saidovning "Malika ayyor" dostoni, "O'zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat", T.Mirzaevning "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari monografiyalari, M.Murodovning "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari haqidagi tadqiqotlari o'zbek folklorshunosligiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi. Jumladan, H.Zarifovning "O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari", "Xalq ijodini nashrga tayyorlash prinsiplari" kabi maqolalari bu borada muhim o'rin tutadi. Akademik V.M.Jirmunskiyning 1974 yilda nashr etilgan "Turkiy xalqlar eposi" kitobida "Manas", "Alpomish", "Edigey" dostonlari haqida, shuningdek, "O'g'uz" qahramonlik eposi va "Kitobi dada Qo'rquq" va "O'rta Osiyo xalq baxshilari" haqidagi tadqiqotlari jamlangan.

Ajdodlarimiz og'zaki ijodini o'rganishdagi zarur ishlardan biri "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar" seriyasining yuzaga kelishi bo'ldi. "Ergash shoir va uning dostonchilikda tutgan o'rni" (1971), "Fozil shoir" (1973), "Po'ltan shoir" (1976), "Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan



o'zni" (1978) kabi davomli tadqiqotlarda, xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, atoqli baxshi-shoirlarning hayoti va ijodi, repertuari kabi masalalar o'rganildi.

Shuningdek, "O'zbek folklorining epik janrlari" (1981), O'zbek folklori ocherklari" (1988-1990) uch tomligi yaratildiki, umumlashtiruvchi xarakterdagi ushbu tadqiqotlarda xalq og'zaki ijodi janrlariga xos xususiyatlar, ularning taraqqiyot bosqichlari kabi masalalar chuqur ilmiy asosda yoritildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda xalqning azaliy orzusi bo'lgan mustaqillik amalga oshirilgach, turli sohalarda bo'lganidek folklorshunoslikda ham yangi davr boshlandi. Eng avvalo respublikamiz madaniyat va ma'naviyatini davr talabiga moslashtirib rivojlantirish uchun xalqimizning madaniy merosini chuqurroq o'rganib, uni o'zlashtirib olish bilan bir qatorda maorif, fan va boshqa sohalarda turgan ko'pgina vazifalarni amalga oshirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

Ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixini chuqur o'rganib, targ'ib qilish, yosh avlodni xalqparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida ulardan foydalanish, madaniy yodgorliklarni tiklash, tarixiy obidalarni asrash, milliy urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodini keng miqyosda ob'ektiv o'rganish va ularning namunalarini to'plash, hozirgi kunda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy mulkni kelajak avlodlarga to'la etkazish uchun barcha zarur choralarni ko'rish, yosh iste'dodlarning kamol topishiga har tomonlama ko'maklashish ana shu vazifalar sirasiga kiradi.

Mana shu nuqtai-nazardan qaraganda istiqloq yillarida milliy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodini o'rganish va targ'ib qilish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yilning 13 yanvarida qabul qilgan «Alpomish»dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori» va uning YUNESKO tomonidan qo'llab- quvvatlanib, 1999 yilning 5-7 noyabrda Termiz shahrida o'tkazilgan xalqaro miqyosdagi tantanali yubiley milliy qadriyatlarimizga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromning ifodasidir.

O'zbek xalqining milliy iftihori bo'lgan «Alpomish»dostonining to'la ravishda xalqimizga etkazilishi madaniy taraqqiyotimizdagi ulkan voqealardan biri bo'ldi. Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Alpomish"dostonining mukammal nashri 1998 yili taniqli folklorshunos To'ra Mirzaevning "Dostonlarning gultoji"nomli so'z boshisi bilan chop etildi. "Alpomish"dostonining 1998 yilda prof.T.Mirzaev tomonidan amalga oshirilgan akademik nashri Oysu Shimshek va Oynur Oz tomonidan turk tiliga o'grilib, 2000 yilda Anqarada bosilib chiqdi. Shuningdek, doston rus, nemis, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilindi.

I.Yormatovning "O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati" (1994), S.Mirzaevaning "O'zbek xalq romantik dostonlari poetikasi" (2002), J.Yusupovning "Xorazm ertagi va hayot haqiqati" (1997), M.Jo'raevning «O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar» (1991), M.Murodov, A.Ergashovlarning "Alpomishnoma" (1999), O.Madaevning "Alpomish"bilan suhbat" (1999), "Xalq og'zaki poetik ijodi" (2001), A.Musaqulovning "O'zbek xalq lirikasi" (1995), SH.Turdimovning "Soqibulbul" (1996), "O'zbek folklorshunosligi masalalari" (2006), M.Jo'raev, U.Sattorovning "Bobolardan qolgan naqlar" (1998), Xorazm dostonlari "Go'ro'g'li" (2004) kabi xalq og'zaki ijodining turli janrlarini o'rganishga qaratilgan monografiya va risolalarning yaratilishi, ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalarining chop etilishi o'zbek folklorshunosligining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

"Alpomish"eposi o'zbek xalqi o'tmishining badiiy qomusidir. Ushbu doston og'zaki adabiyotning tub ma'nosini, obrazli tafakkurning buyukvazifasini, badiiy so'zning qudrati va o'lmasligini ming yillardan beri isbotlab kelmoqda. "Alpomish"dostonidagi tinchlik va birlikka, adolat va haqiqatga intilish kabi azaliy va abadiy muammolar, ulug'vor poetik umumlashmalar uni dunyo folklorining tengsiz namunalari-hind "Mahabxarata"si, qirg'iz "Manasi", yunon "Iliada"si, xullas, G'arb va



Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo‘ydi. “Alpomish” dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug‘ birligini kuylovchi ulkan so‘z obidasidir. Dostonda umumbashariy muammolar talqini bilan birga keyingi barcha zamonlarga tegishli bo‘lgan, ibrat olishga arzigulik da‘vatlar, ogohlantirishlar ham sezilib turadi. Shuning uchun ham dostonning ming yillik tantanalarida respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘stu yorimizni, or- nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mazozlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi» degan edi. Professor H.T.Zarifov va boshqa folklorshunos olimlarning ma‘lumotlariga qaraganda “Alpomish” dostoni ko‘chmanchi-chorvador qo‘ng‘irot urug‘i orasida patriarxal-urug‘chilik munosabatlari emirila boshlagan davrda, Sirdaryoning quyi oqimlari va Orol dengizi atroflarida X-XI asrlarda yuzaga kelgan. Qo‘ng‘irot qabilasi turli hududlarga siljishi natijasida doston boshqa urug‘ va elatlarga ham tarqalgan. Doston qo‘ng‘irot urug‘i boshliqlari aka-uka Boysari va Boybo‘rilarning farzandsizligini hikoya qilish bilan boshlanadi. Keyinchalik yaratganga iltijolar qilib tilab-tilab olingan farzandlar “Alpomish” va Barchinlarning tug‘ilishi, “Alpomish”ning etti yoshida pahlavonlik ko‘rsatib, alplarga qatoriga qo‘shilishi, Boysarining Boybo‘ridan arazlab Qalmoq yurtiga ko‘chib ketishi, “Alpomish”ning Barchinni, ikkinchi marta Boysarini qutqarish uchun bo‘lgan safari mashaqqatlari, etti yillik tutqunlik, va nihoyat oti Boychibor va o‘zining g‘ayrat- shijoati bilan asirlikdan qutilib, har ikkala yurtda zulm- zo‘ravonlikka barham berib, o‘z hokimiyatini o‘rnatishi voqealari tasvirlanadi. Dostonda aka-uka Boybo‘ri va Boysarilarning zakot masalasida bir-birini yaxshi tushuna olmay gina va adovatlarga berilishi, buning oqibatida bitta urug‘ning ikkiga bo‘linib ketishi, Qo‘ng‘irot urug‘i o‘rtasidagi bo‘linish esa xunuk oqibatlarga, behisob kulfatlarga sabab bo‘lganligi nihoyatda ta‘sirchan va hayotiy aks ettirilgan. Doston voqealaridan ma‘lumki, zakot haqidagi xabar Boysari ruhiyatida keskin tug‘yon uyg‘otadi. U o‘zini tahqirlangan va kamsitilgan kishi hisoblab «o‘z akamga o‘zim zakot berguncha Qalmoq borib juz‘ya beribyuraman» deb Yortiboy oqsoqolning maslahati bilan Qalmoq yurtiga ko‘chib ketadi. Lekin barcha ko‘rguliklar begona yurtga borgandan keyin boshlanadi. Boysari musofirlikning achchiq alamlarini boshidan kechiradi. O‘z yurtini tashlab ketib katta xato qilganini tushunadi. Doston bosh qahramoni Qo‘ng‘irot urug‘ining umidi va ishonchi Hakimbek-Alpomishdir.

U o‘z qarindoshlarining, o‘z urug‘ining tariqdek har tomonga sochilib ketishiga, begona yurtlarda xor- zor bo‘lib yurishlariga befarq qarab turolmaydi. Favqulodda kuch- qudratga ega bo‘lgan “Alpomish”da butun bir xalqning orzu- umidlari, kelajakka bo‘lgan ishonch va intilishlari mujassamlashgan. “Alpomish” sevimli yori Barchin uchun, bo‘linib ketgan Qo‘ng‘irot urug‘ining boshini birlashtirish uchun or-nomus kurashini olib boradi. Kashalda Toychixon, Boysun-Qo‘ng‘irotida Ultontoz zulmi avj olib turgan bir davrda har ikkala elda ham adolat va haqiqat tantana qilishiga kamarbasta bo‘ladi. Mana shu sifatlari bilan “Alpomish” dostonida faqat milliy qobiqda harakat qiluvchi shaxs emas, balki olamshumul ahamiyatga molik siymo sifatida talqin qilinadi. Dostonda Barchin bilan bog‘liq voqealar alohida mehr bilan tasvirlangan. U aql-zakovat va jasoratda Alpomishga munosib yor ekanligi qalmoq eliga ko‘chib ketayotganda norozi bo‘lib onasiga aytgan gaplarida, Surxaylning o‘g‘illari qizingni yo birimizga, yo barimizga berasan, deb Boysarini haqoratlab turganlarida qalmoq bahodirlarining holini tang qilib munosib javob qaytarganida yaqqol namoyon bo‘ladi. Surxaylning o‘g‘illari Barchinga olti oy muhlat berishga majbur bo‘ladilar. Barchin Alpomishning kelishini intizorlik bilan kutadi, barcha mushkulotlar tuguni faqat uning jasorati bilan echilishini sezadi. Ammo “Alpomish” Qalmoq yurtiga kelganida turmushga chiqish uchun qo‘ygan shartlarini unga ham qo‘llaydi. Barchin o‘z shartlarini aytar ekan, bu bir- biridan qiyin shartlarni faqat “Alpomish”gina bajara olishini biladi. SHartlarni bajarish bilan bog‘liq



musobaqalarda "Alpomish" ni g'alaba sari undaydi. Alpomish bilan Ko'kaldoshning kurashi cho'zilib ketganida hatto yigitning nafsoniyatiga tegadigan gaplar aytib bahodirning kuchiga-kuch qo'shadi: Bu dushmanni ko'kka otsang, ne bo'lar? Ish ko'rsatsang, mening ko'nglim topilar. Qizlar sizni nar-moda deb ataydi, Qizlarning aytgani menga botadi, Mardlar olishmaydi, siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi, Bo'sh odamning ishi keyin ketadi. Binobarin, poyga tasvirida, kurash epizodida "Alpomish"ning g'olib chiqishida Barchinning hissasi katta. Zero, Barchin dostonning markaziy qahramoni "Alpomish" obrazining mukammal va ta'sirchan chiqishini ham ta'minlagan. Dostonda do'stlik, birodarlik, ezgulik va haqiqat yo'lidagi hamkorlik g'oyalari ko'proq Qorajon obrazi orqali mujassamlashtirilgan. Qorajon makkor Surxayning o'g'li bo'lishiga qaramasdan, doston voqealaridavomida faqat haqiqat tomonidan turib harakat qiladi. Karomatli tush ko'rib, tushida "Alpomish" bilan do'st tutinishi lozimligiga ishora bo'lganidan keyin umrining oxirigacha sadoqatli do'st bo'lib qoladi. U onasi Surxayl va og'alarini Qo'ng'iroq elidan kelganlarning tinchini buzmaslikka undaydi. "Alpomish"ning sodda va oqko'ngilliligini, tengsiz pahlavonligini bilgan Qorajon u bilan og'a- ini tutinadi, ahdiga sodiq qolib mushkul damlarda yordam berishga intiladi. "Alpomish" tutqunlikda ekanida uni qutqarish uchun boradi. Xullas, o'zbek xalq dostonlaridagi an'anaviy do'stlik motivi Qorajon obrazi orqali talqin qilingan. "Alpomish"dostonida Boybo'ri, Boysari, Qaldirg'och, Kultoy, Qayqubod, Ultontoz, Toychixon, Tovka oyim kabi qator obrazlar yaratilganki, bular ham voqealar davomida o'z o'rnida ishtirok etib asar markazida turgan g'oyaviy maqsadni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydilar. Xullas, "Alpomish"dostoni ming yillar qa'ridan bizga qadar etib kelgan asrlar nidosi, ajdodlarimiz orzu- armonlarining shonli qo'shig'idir. Bu qo'shiq shunday hayotiy haqiqat bilan yo'g'rilganki, u bizni bo'lingan elning boshiga tushajak kulfatlardan ogoh etadi, faqat elga qo'shilib el topish saodatini shuurimizga singdiradi. Taassubki, o'tmishda Turon zaminning asrlar davomida necha martalab chet el bosqinchilari zulmi ostida toptalishiga, turkiy qavmlar o'rtasida birlik va hamjihatlik yo'qolib, o'zaro ichki nizo va adovatlar sabab bo'lgani ham tarixiy haqiqatdir.

Ona-Vatanimizning ozodligi va mustaqilligi yo'lida ko'ragini qalqon qilib maydonga tushgan, dushmanlarning dodini berib, jonlarini fido qilgan sheryurak vatan o'g'lonlari "Muqanna", "Temur Malik", "Jaloliddin Manguberdi"laroz zamonasining "Alpomish"lari edilar. Binobarin, "Alpomish"eposi faqat mubolag'ali qahramonliklar madh etilgan hayoliy to'qimalar majmuidan iborat emas. Balki dostonning butun mohiyati hayotiy haqiqat asosiga qurilganki, bu hayotiylik xalqning cheksiz hayot olami va go'zal ideallari bilan qorishib ketgan holda namoyon bo'lgan. "Alpomish"eposi ajdodlarimizning bizga meros qilib qoldirgan o'ziga xos pand-o'giti, ibratli nasihatnomasidir. Dostonning har bir lavhasi, doston qahramonlarining qismati o'quvchini o'ylashga, qissadan hissa chiqarishga da'vat etadi, kelajak nasllarni elu yurti sevishga, Ona-Vatanni e'zozlashga o'rgatadi.

O'quvchi-yoshlarda doston vositasida jismoniy, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun qo'yidagilarga e'tiborni qaratish lozim.

- "Alpomish" dostoni asosida o'quvchi-yoshlarda jismoniy, ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirishni alohida tadqiqot obekti sifatida o'rganish:
- "Alpomish" dostonining shaxsni shakllantirish bilan bog'liq tasniflari ishlab chiqilsa:
- Jismoniy tarbiya darslarida "Alpomish" dostoni orqali jismoniy barkamollik shakllantirilsa, ma'naviy-ahloqiy va pedagogik shart-sharoitlari taxlil e'tilsa:
- "Alpomish" dostoni orqali o'quvchi-yoshlarda insoniy fazilatlarini shakllantirishda, tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari asoslab berilsa, barkamol avlodni tarbiyalashda davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi:

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov, O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O‘zbekiston, 1999.
2. I.A.Karimov, O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O‘zbekiston, 1996.
3. K.Imomov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “O‘qituvchi nashriyoti”, 1990.
4. Jismoniy ta’limda milliy a’nanalarning o‘rni.F.Q.Ahmedov T.: “Fan nashriyoti” 2010
5. O.Madaev, T.Sobitova, Xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq nashriyoti”, 2001.
6. O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, 1- tom, T.: “Fan nashriyoti”, 1988. 6. S.Mirzaeva, O‘zbek xalq romantik dostonlari poetikasi. T.: “Fan nashriyoti”, 2004.
7. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Z.Masharipova o‘quv qo‘llanma T.: Nizomiy nomidagi TDPU 2007.